

ER -XOTIN O‘RTASIDAGI NIZOLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Ruzmatova Dilnoza Tirkashevna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali II-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy -psixologik xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari, oilaviy nizolarning turlari, nizolarga sabab bo‘luvchi omillar ularni oldini olish, turmush o‘rtoqlarning xarakter jihatidan mosligi, ularning o‘zaro bir-birini tushuna olishi, muammolarni qanday oldini olish bo‘yicha bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, er-xotin, destruktiv nizo, konstruktiv nizo, befarqlik, achchiqlanish, o‘zaro munosabat, mojaro, kelishmovchilik, befarqli, achchiqlanish, nafrat, ijtimoiy qo‘llab quvvatlash.

SOCIAL ANALYSIS OF DISPUTES BETWEEN HUSBAND AND WIFE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

Ruzmatova Dilnoza Tirkashevna

Second-level graduate student of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Abstract: In this article, the socio-psychological characteristics of conflicts between spouses, their causes, types of family conflicts, factors that cause conflicts, their prevention, character compatibility of spouses, their mutual understanding able to understand, suggestions and recommendations on how to prevent problems are given.

Key words: family, couple, destructive conflict, constructive conflict, indifference, bitterness, reciprocity, conflict, disagreement, indifferent, anger, hatred, social support.

СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СПОРОВ МЕЖДУ МУЖЕМ И ЖЕНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Рузматова Дильноза Туркашевна

Магистрант второй ступени Джизакского филиала Национального университета Узбекистана

Аннотация: В данной статье рассмотрены социально-психологическая характеристика конфликтов между супругами, их причины, виды семейных конфликтов, факторы, вызывающие конфликты, их профилактика, совместимость характеров супругов, их взаимопонимание, способные понять, предложения и рекомендации, даны как их разрешить. предотвратить проблемы.

Ключевые слова: семья, пара, деструктивный конфликт, конструктивный конфликт, безразличие, горечь, взаимность, конфликт, несогласие, безразличие, гнев, ненависть, социальная поддержка.

Kirish. Oila jamiyatning bo‘g‘ini va bir bo‘lagidir. Insoniyat boshidan kechirgan davrlar shunchalik o‘zgacha va murakkab bo‘lishiga qaramay, XIX-XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlarga dosh bergani jamiyat oldida turgan majburiyatlarini ado etgan sog‘-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil qilganligini va oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topganligini hisobga olib, buni psixologik jarayonlar maskani deb atasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda ushbu jumlaning keltiramiz. “Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerakki : oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib, o‘rgansak ishimizni mukammal va unumli bajarsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”[1] degan gaplarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga Muroja‘atnomasida aytib o‘tganlar.

Darhaqiqat, zamonaviy bilimlarni olishga intilsak, bu ziddiyatlar qarama-qarshi maqsadlar, fikrlar qarashlar g‘oyalar, manfa‘atlar, fikrlarning to‘qnashuvini oldini olgan oila a‘zolar o‘rtasidagi nizolarning keskin tarzda kamayishiga olib kelgan bo‘lar edi. Shu bilan birga oila a‘zolar o‘rtasidagi munosabatlar farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazar ekan, bu munosabatlarni yaxshilanishiga

olib kelgan bo'lar edi. Oilada har-bir a'zoning o'ziga xos majburiyatlari va burchlari bor. Mana shunday burch va majburiyatlarni o'z vaqtida tushunish va amalga oshirish munosabatlarni yaxshilash va paydo bo'ladigan nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Aslini olganda nizo o'zi nima va oilaviy nizolar kimlar ishtirok etishiga qarab qanday turlarga bo'linadi, bularni ko'rib chiqamiz. Demak, har qanday nizo bu- qadriyatlar, ustanovkalar, motivlar qarama qarshiligidir [2]. Darhaqiqat, buni oila misolida oladiigan bo'lsak, oilada o'zaro bir-birini tushunmaslik, tan olinmaslik, uning oddiy kamchiligidan ayb qidirish, xarakter xususiyatlarini bir-biriga tushmasligi, o'zaro bir-birini hurmat qilmaslik bir-birini tinglamaslik, ovoz ohangini ko'tarilishi buning hammasi oilada bo'ladigan ziddiyatlarga sabab bo'liadi deb aytishiiz mumkin bo'ladi. Ana shu o'rinda yuqoridagi sabablar kimlar bilan oilaviy nizolar kelib chiqishini belgilab beradi deb ayta olishimiz mumkin. Albatta, bunday sabablar nizoning quyidagi turlarini keltirib chiqaradi.

1. Er-xotin o'rtasidagi nizolar .
2. Qaynona- kelin o'rtasidagi nizolar.
3. Qaynona -kuyov o'rtasidagi nizolar.
- 4 .Ovsinlar o'rtasidagi nizolar.
5. Farzandlar o'rtasidagi nizolar [3]

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, nizo har bir oilada va oilaning har bir a'zosi bilan sodir bo'lishi mumkin. Chunki o'zaro muloqot, muomala bor joyda, albatta fikrlar ketma -ketligi ziddiyatlar kelib chiqishi tabiiy hol. Chunki bu dunyoda hech bir zot bir-birini takrorlamadi va o'ziga xos tarzda yaratilgan va bu dunyoda o'z qarashlari bilan yashaydi.

Biz endigi navbatda hozirgi kunda eng tarqalgan er-xotin o'rtasidagi nizolarni atroflicha yoritishga harakat qilamiz. Har bir oila borki unda albatta nizo bor. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, oilada o'zini burch ilm ma'suliyatini tushunib anglab yetmagan bo'yniga olmagan erkak oilani farovonlogini ta'minlay olmaydi. Turmush o'rtog'ini xursand baxtli qila olmaydi. Bu muammo esa o'z navbatida farzandlar kelajagiga o'z navbatida yaxshigina ta'sir o'tkazadi, turmush o'rtog'ini orzu havaslariga ham bu ta'sir o'tkazmay qolmaydi va shu bilan birgalikda turmush o'rtogining kutuvlariga real hayotning mos emasligi ham muhim o'zini rol o'ynaydi. Shu jumladan er-xotin munosabatlardagi nizolarni turlarini keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, quyida nizo turlarini keltirib o'tamiz.

1. Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala tomonga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. Yomon nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hissini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin [4].

Darhaqiqat, biz shuni aytishimiz mumkinki, nizolar ham o'z o'rnida nafaqat yomon, balki yaxshi nizolarga ajratishimiz mumkin. Bunday nizolar oxir oqibat nizoni qanday yakunlanishiga bog'liq bo'ladi. Shunday nizolar mavjudki, muammoni mohiyati asl sababi topilganidan so'nggina nizolar konstruktiv ya'ni yechimi yaxshilik bilan tugaydi deb ayta olishimiz mumkin. Konstruktiv nizolarda ikkala tomon ochiq va hurmat bilan gaplashadilar, fikrlar xilma -xilligi ilan ajralib turadi, destruktiv noizolar ikkala tomon barmoqlarini bir-biriga qaratib gapiradilar, ular o'zini nazoart qila olmaydilar, bir-birlariga mos kelmaydilar, e'tiborsizlik judayam kuchli bo'ladi, samarasiz yechimi yo'q muammolarga olib keliib qo'yadi. Shu o'rinda shuni aytish joizki nizoning konstruktiv yoki destruktiv tus olishi ikkal atomonning axloq, hislariga qadriyatlar ko'nikma qobiliyatlar maqsadlariga ular orasidagi farqlariga ham sabab bo'ladi.

Shu o'rinda er va xotin o'rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo'luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritib o'tganlar :

achchiqlanish – oilaviy hayotda ko'p uchraydi, chunki u o'zaro g'amxo'rlik va bog'liqlik kamaygan sharoitlarda o'z-o'zidan paydo bo'ladi; F. Perlzning yozishicha, „Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o'zaro muomalaga bo'lgan intiqlikdir“, aybdorlik – o'zining qilmishi uchun o'ch olishday gap, ko'pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi, arazlash – turmush o'rtog'idan o'ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg'u;

nafrat – turmush o'rtog'iga go'yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish, tanqid qilish –

qo'rqoqlikka o'xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, SHostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga o'tgani ma'qul, turmush o'rtog'idan yiroqlashish, ketib qolish – bu ham ma'lum ma'noda bir-birini nazoratda ushlashning bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

befarqlik – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi[4]

Darhaqiqat ,achchiqlanish oilada bir biriga nisbatan e'tibor va mehr yetishmaganda paydo bo'ladi va bu ko'rinish ayollarimizda araz sifatida oilalarimizda namoyon bo'lishi mumkin. Nafrat qachonki paydo bo'ladi oilalarda buni biz orada paydo bo'ladigan nizolar kattalashib borgan sari er-xotin nizolarida nafrat paydo bo'ladi va bu bora-bora oilalarni ajralib ketishiga va farzandlarni yetim qolishiga ham sababchi bo'ladi.O'z o'rnida befarqlik ham er-xotin orasidagi munosabatlarni ayanchli ahvolga olib keladi va bir-biridan ajralishiga sabab bo'ladi. Mana shunday salbiy munosabatlar er-xotin o'rtasida nizolariga sabab bo'lib kelmoqda..Bu esa ular o'rtasidagi munosabatlarning destruktiv yoki konstruktiv nizolarga sabab bo'ladi. Nizoning turiga qarab bunda oila yoki mustahkamlanadi yoki er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni jiddiy tus olishiga olib keladi.

Xo'sh, er-xotin o'rtasidagi nizolar o'zi kerakmi? degan savolga quyidagicha javob beramiz. O'tmishda donishmandlar er-xotin munosabatlarini garmdoriga o'xshatgan. Garmdori achchiq lekin u agarda miqdoridan ortsa u tilni kuydiradi ,agardaki meyorida bo'lsa u demak insonni ishtaxasiga yana ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi.Shuni aytishimiz mumkinki har bir oilada nizolar mavjud lekin ,bu nizolar o'z o'rnida bo'lsa bu oilaviy mu osabatlarni rivojlantirishga er-xotinni o'zaro bir-birini tushunijshga ularni o'rtsidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Oiladagi munosabatlarni mustahkamlanishiga yordam beradi.Chunki shahslararo munosabatlar o'zaro nizosiz bo'lmaydi. Bu esa nizoning paydo bo'lishi oqibati uning tezligi ,psixologik xususiyatiga yoshi jinsiga ,omillariga bog'liq.

Er-xotin munosabatlarida nizolarning rivojlanish yo'li yuzaga kelgan oilalarda er-xotin munosabatlarini u yoki bu tarzda rivojlanishi shartli ravishda 4 xil oila turi mavjud.

1. Bunda o'zaro munosabati mustahkamlangan oilalar.
2. Oilalar munosabatlar vaqtincha mustahkamlangan oilalar.
3. Yangi nizolar yuzaga kelib takrorlanib turadigan oilalar.
4. Nihoyat munosabati buzilib uzil- kesil ajrashib ketgan oilalar[5].

Demak oilalarda nizolarning bir nech xil turlari borligini er-xotin o'rtasida o'zaro chiqadigan mojarolar oilalarni saqlab qoladi bazilari esa oilalalarni barbod qilish xususiyatiga ega ekan

Quyida ana shunday takrorlanib turadigan yoki muntazam davom etadigan nizolarga psixologiyada hal etish usullari ,yo'llari berib o'tilgan

I. Raqobat usuli — muloqot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o'z qo'liga olishga harakat qilishini anglatadi. Bunday holatni psixologik til bilan ifodalanganda “yashirin nizo yig'ilib boradi” deyish mumkin.

II. Yon berish — Yuqorida aytilgan holatga o'xshashroq, biroq undan ko'ra farqliroq holat hisoblanadi. Bunda shaxs muloqot jarayonida yon berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb hisoblaydi.Bunda kishi o'zidan yoshi, mansabi, mavqei jihatdan katta kishi oldida o'z manfaat va istaklarini to'la ifoda etolmay o'zini tobe his etadi.

III. Passivlik — biron masalani hal etish lozim bo'lgan vaziyatlardan shaxsning o'zini olib qochishi, turli bahonalar bilan qarorni orqaga surishini anglatadi. Ko'pincha bu xil harakat nizoli vaziyatlarni hal etish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Aytish mumkinki, passivlik — nizodan qochish emas, balki masalani uzil kesil hal etishdan qochishdir.

IV. Kompromiss— ya'ni kelishuvchanlik. Bahsli vaziyatlarda“Sen ham yutqizma, men ham yutqizmay” qabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan ikkala tomon ham xafa bo'lmay chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bo'lgan holdir. Albatta, bu yuqorida sanab o'tilgan munosabat tiplarining orasida eng samaralisi hisoblanadi.

V. Hamkorlik— bu holat muloqot jarayonida ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo'lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir[7].

Nizolar o'zlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar, bu muammolarning hal etilishi,

kechikishi, ishtrokchilari, oqibatlari va boshqalarning xarakteriga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham erining, ham xotinning butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimini topadi. Ajratuvchi nizolarda ularning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko'pincha, ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Shunday ekan, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham, yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yangi oila qurmoqchi bo'lgan yosh qizlarimiz oilaviy hayotda ro'y beradigan biriktiruvchi nizolarga tayyor bo'lishlari, ularni biriktiruvchanlik, er-xotinni birbirlariga moslashuviga, ularning o'zaro munosabatlarining rivojlanishini ta'minlovchi, ularning har ikkalovining ham ya'ni bizning manfaatiga qaratilgan nizoning biriktiruvchanlik imkoniyatidan samarali foydalanishga, ularni salbiy oqibatlarga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o'rganishlari lozim.

Shu o'rinda er-xotin nizolarini bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

1. Nizo paydo bo'lgan paytda hech kimni aralshuviga yo'l qo'ymang, o'zingiz hal qilishga harakat qiling.

2. Nizoga borgan paytingiz ovoz ohangiga e'tibor qarating, zero nizoni hal qilishga ovoz ohangiga ham bog'liq.

3. Nizo paydo bo'lgandan so'ng bittangiz faqat u joyni tark eting.

4. Tinch sokin joyda nizoni hal qilishga harakat qiling.

5. Mojaro paydo bo'lganda bir-biringizni tinglashga harakat qiling.

6. Farzandlaringiz oldida also janjallasha ko'rmang.

7. Muammoning asl mohiyatini tushunib yetishga harakat qiling.

8. Muammo paydo bo'ldimi, bir-biringizga hurmatni saqlagan holda muammoga yondoshishga harakat qiling.

Xulosa Nizolarni boshqarish muvaffaqiyatli nikohning kaliti hisoblanadi. Olib boriladigan tadqiqotlari hozirgi kunda shuni ko'rsatayotiki, nikohda yaxshi natijalarga javobga holatlar masalan er-xotinning har tomonlama ko'proq qo'llab quvvatlash e'tibor berishga chiqarmoqda. Darhaqiqat nizolar yillar o'tishi bilan munosabatlarga foydali yoki zarali bo'lishi haqida munozaralar bahslar tadqiqotlarning avj olishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyot porloq kelajagimiz. T., Zamin nashr "-2020 yil 9-bet

2. G.R. Qarshiboyeva, U.R. Ibaydullayeva - Oila psixologiyasi o'quv qo'llanma T., Bayoz "", 2022 144-bet.

3. <https://images.app.goo.gl/2J9e3RcXX3rjqEUK6><https://cyberleninka.ru>

4. Vasila Karimova. Oila Psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T: 2007 76-bet

5. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-, Россия. 2023.

6. U. Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o'zaro munosabatlari borasida sharq va g'arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

7. U. Ibaydullayeva, M. Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman Jizzax-2023 2-qism.

8. Ayol, oila va jamiyat / Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / F. Otaxonov. – T.: 2007 – 260 b.